

**10-SINF O‘ZBEK ONA TILI DARSLIGI BILAN FRANSIYANING
“FRANÇAIS LIVRE 10E UNIQUE” DARSLIGINING QIYOSIY TAHLILI**

Rabonaqulov Shohjahon

*Toshkent Davlat O‘zbek tili va
adabiyoti universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida foydalanilayotgan 10-sinf ona tili darsligi bilan Fransiyada qo‘llanilayotgan “Français Livre 10e Unique” darsligi o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazilgan. Tahlilda darsliklarning tuzilishi, mazmuni, metodik yondashuvi, til va madaniyat uyg‘unligi, baholash usullari kabi mezonlar asos qilib olingan. Maqola davomida har ikki davlat ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlar, darsliklar orqali o‘quvchilarga berilayotgan bilim va ko‘nikmalar, shuningdek, ularning yutuq va kamchiliklari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: qiyosiy tahlil, ona tili darsligi, Français Livre 10e Unique, til siyosati, metodika, madaniyat, kompetensiya, integratsiyalashgan ta’lim.

Darsliklar — nafaqat o‘quvchilar bilimini shakllantiruvchi, balki har bir xalqning madaniy, lingvistik va pedagogik yondashuvlarini ifoda etuvchi asosiy vositadir. O‘zbekiston va Fransiya kabi ikki turli madaniyatga ega davlatlarda yaratilgan 10-sinf til faniga oid darsliklarni taqqoslash orqali nafaqat ta’limdagi yondashuvlar, balki jamiyatning til va madaniyatga munosabati haqida ham qimmatli xulosalar chiqarish mumkin.

O‘zbekiston darsligi an’anaviy strukturaga ega: fonetika, morfologiya, sintaksis, uslubiyat kabi bo‘limlar ketma-ket yoritiladi. Har bir mavzudan so‘ng nazariy bilimlarni mustahkamlovchi mashqlar va savollar beriladi. Darslikning asosiy yo‘nalishi — grammatik bilimni chuqurlashtirish va savodxonlikni oshirish. Fransuz darsligi esa integratsiyalashgan yondashuv asosida tuzilgan bo‘lib, u tilshunoslik, adabiyot, madaniyatshunoslik va yozma ko‘nikmalarni bir tizimda uyg‘unlashtiradi. Har bir bob adabiy matnlar, muhokamalar, ijtimoiy mavzular asosida shakllanib, o‘quvchidan tanqidiy fikr va estetik bahoni talab qiladi.

Fransuz darsligidagi integratsiyalashgan metod o‘quvchini tildan tashqari madaniyat, axloq va jamiyatga oid tushunchalar bilan tanishtiradi. UNESCO ta’lim strategiyasida ham bu kabi yondashuv tavsiya etilgan (Candelier, 2012).

O‘zbek darsligi deduktiv yondashuv asosida tuzilgan: avval nazariya, so‘ngra mashq. Bu tizim grammatikani mukammal o‘rgatadi, biroq ijodiy fikrlashni sustlashtirishi mumkin.

Bunga zid ravishda, Fransuz darsligi konstruktivistik metodikani qoʻllaydi. Oʻquvchilar amaliy faoliyat, loyihalar, matn tahlillari orqali tilni “yashab” oʻrganadilar. Kompetensiyaviy yondashuv esa bilimni real hayotda qoʻllashga yoʻnaltirilgan. Harmer (2007) konstruktivistik yondashuvda oʻquvchi faol subyektga aylanishini, darslik esa vosita sifatida xizmat qilishini taʼkidlaydi.

Oʻzbek darsligida milliy madaniyat aks ettirilgan: maqollar, xalq ogʻzaki ijodi, sheʼriyat. Bu orqali oʻquvchi oʻz milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarashni oʻrganadi. Fransuz darsligida esa transmadaniy yondashuv koʻzga tashlanadi. Frankofon dunyoga oid matnlar (Kanada, Afrika mamlakatlari) oʻquvchiga madaniyatlararo muloqotni oʻrgatadi. Bu nafaqat til oʻrganishga, balki global fikrlashga yoʻl ochadi. Candelier (2012) madaniyatlararo taʼlimning asosiy mezonini boshqalarni tushunish va qabul qilish madaniyati, deb taʼkidlaydi.

Oʻzbek darsligida baholash asosan test, diktant, yozma ishlar bilan cheklanadi. Oʻquvchi koʻproq passiv ijrochi rolini oʻynaydi. Fransuz darsligida esa baholash faoliyatiga asoslangan: esse, rolli oʻyin, guruh loyihasi, ogʻzaki taqdimot. Bu oʻquvchini ijodiy, ishtirokchi va tahlilchi shaxs sifatida shakllantiradi.

XXI asr koʻnikmalari ichida hamkorlik, muammoga yondashuv va muloqot asosiy deb tan olingan (UNESCO Global Education Monitoring Report, 2021). Oʻzbekiston va Fransiya darsliklari turli uslublar va yondashuvlarni aks ettiradi. Oʻzbek darsligi aniq va tizimli boʻlsa, Fransuz darsligi ijodiy va integratsiyalashgan. Har ikki yondashuvning kuchli jihatlari uygʻunlashtirish orqali, Oʻzbekiston taʼlimi uchun yanada samarali darsliklar yaratish mumkin.

Oʻzbek darsligiga madaniyatlararo komponent kiritish ham ayni dolzarb masaladir. Ayni rivojlanib borayotgan zamonada turli madaniyatlar uygʻunligi oʻquvchilar dunyoqarashining kengayishiga zamindir. Shuningdek oʻzbek darsliklaridagi baholashda ijodiy va ogʻzaki topshiriqlarga koʻproq oʻrin berish kerak. Bu tafakkur va ongning rivojlanishi, bolalarda ijodkorlikning rivojlanishiga asos boʻladi.

Matnlar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ham oʻzbek darsligida endi rivojlanib borayotgan bir usuldir. Buni keying yaratiladigan darsliklarda yanada kengroq va chuqurroq tatbiq etish maqsadga muvofiq boʻladi.

Fransuz tajribasidan oʻrganib, kompetensiyaga asoslangan oʻquv yondashuvlarni sinf sharoitiga moslashtirish bu darslik yaratishdagi bir katta qadam boʻladi.

Yuqoridagi tahlildan koʻrinib turibdiki, Oʻzbekiston va Fransiya darsliklarida yondashuvlar turlicha boʻlsa-da, har ikkisinin oʻziga xos afzalliklari mavjud. Oʻzbek darsligi anʼanaviylik, grammatik chuqurlik va milliylikni saqlab qolgan boʻlsa, Fransuz darsligi zamonaviy, integratsiyalashgan va kompetensiyaga asoslangan yondashuvni namoyon etadi. Kelgusida oʻzbek darsliklarini yanada takomillashtirishda Fransuz

tajribasini, xususan, integratsiyalashgan metodlarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish foydali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Ona tili. 10-sinf darsligi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2022.
2. Ministère de l'Éducation nationale, de la Jeunesse et des Sports. Français Livre 10e Unique. – Paris: Hachette Éducation, 2022.
3. Karimov, I. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. – London: Longman, 2007.
5. Candelier, M. et al. Les langues vivantes à l'école: Approches plurielles des langues et des cultures. – Strasbourg: Conseil de l'Europe, 2012.
6. Shoabdurahmonov, S. Ona tili va adabiyot ta’limining nazariy asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020.